

## ONA TILI DARSLARIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH UCHUN IJODIY YOZUV METODLARIDAN FOYDALANISH

**Ashirmamatova Madina**

*ADPI. 101-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola ona tili ta'limining eng muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida nutqning ikki turi – og'zaki va yozma nutqning o'zaro bo'liqligi, ularni birgalikda rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari hamda amaliy metodlari chuqur tahlil qilingan. Maqolada og'zaki va yozma nutqni integratsiyalashgan holda rivojlantirishning nazariy asoslari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion usullar keng yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili, nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, integratsiyalashgan yondashuv, nutqni rivojlantirish, pedagogik va psixologik asoslar.*

**Abstract:** *This article is devoted to the study of modern pedagogical approaches to comprehensive development of students' oral and written speech skills, one of the most important tasks of mother tongue education. In the research work, the interdependence of two types of speech - oral and written speech, the pedagogical and psychological foundations and practical methods of their joint development are deeply analyzed. The theoretical foundations of the integrated development of oral and written speech, modern educational technologies and innovative methods are widely covered in the article.*

**Key words:** *native language, speech, oral speech, written speech, integrated approach, speech development, pedagogical and psychological foundations.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена изучению современных педагогических подходов к комплексному развитию навыков устной и письменной речи учащихся, одной из важнейших задач родного языка. В исследовательской работе глубоко анализируются взаимозависимость двух типов речи - устной и письменной, педагогические и психологические основы и практические методы их совместного развития. В статье широко освещены теоретические основы комплексного развития устной и письменной речи, современные образовательные технологии и инновационные методы.*

**Ключевые слова:** *родной язык, речь, устная речь, письменная речь, комплексный подход, речевое развитие, педагогико-психологические основы.*

XXI asrning zamonaviy ta'lim tizimida til o'rganish va o'rgatish metodikasi tubdan o'zgarib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning shakllanishi ona tili ta'limiga ham yangicha qarashni talab etmoqda. Bu jihatdan og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ona tili – har bir millat uchun eng qadimiy va eng qimmatli meros bo'lib, u nafaqat muloqot vositasi,

balki milliy o'zlikni saqlash, madaniy qadriyatlarni avloddan avlodga o'tkazish va intellektual rivojlanishning asosiy omilidir. Shu sababli ona tilini o'rganish jarayonida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini muvozanatli ravishda rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Inson ma'naviy kamolotga erishuvda, jamiyatning madaniy ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng holis va xira tortmas ko'zgusidir. Hadisi shariflarda "Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir" deyiladi. [Maxmudov, 2007: 3].

Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur "mevalari" til va nutq orqali yuzaga chiqadi. Biz nutq haqida ma'lumot berishdan avval til va nutqni bir-biridan farqlab olishimiz lozimdir. Sababi "til" va "nutq" degan terminlar ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. "Til va nutq hodisalarini o'zaro farqlab yondashish dastlab VIII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o'rganish usullarida, keyinchlik esa V.Glumboldtning tildagi "energio" (harakat, jarayon, kuch) va "ergon" (mahsulot), A.Shteyntalning tildagi "barqaror mohiyat" va "harakatdagi kuchlar", Boduen de Kurtenening "tildagi barqarorlik va o'zgaruvchanlik" haqidagi ta'limotlarida uchramiz. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga hos birliklarni tom ma'noda ilmiy nazariy hamda amaliy farqlash; til va nutq birliklarining mohiyatini ochish yo'llari, "til" va "nutq" tushunchalariga batamom yangi mazmun berilishi F. de Sosyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqdir" deb o'rganamiz [Ne'matov, Bozorov, 1993: 7].

Lekin "Til va nutq odobi, nutqiy ma'daniyat, nutq san'ati haqidagi fikrlar, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida yuqori darajada aks etgan" [Omonturdiyev, Abdurahimova, 2016: 14]ini ko'rishimiz mumkin. Masalan, A.Navoiyning muhtasham "Hamsa" sining barcha dostonlari (alohida-alohida boblar) da, "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Nazm ul-javohir" va boshqa ko'plab asarlarida so'zning buyuk qudrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan [Maxmudov, 2007: 8]. Ayniqsa, "Muhokamat ul – lug'atayn" asarini o'qib o'rganib chiqsak. Bu asar o'zbek tilining bitmas tuganmas fikr bayon qilish imkoniyatlariga ega ekanligini, uning har qanday fikrni ham nazmda to'la va chiroyli ifoda etishga qodirligini ilmiy va amaliy dalillar asosida isbot qilib beradi. Ushbu asarda A.Navoiy ko'ngilni dengizga, so'zni durga, so'zlovchini esa g'avvosga qiyoslaganini ko'rishimiz mumkin. Demak, bu fikrlardan bilinadiki til umumiylikka, nutq esa xususiylikka egadir.

Chiroyli so'zlashni, o'z fikrini savodli va aniq bayon etishni bilmagan o'quvchilar bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq va ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Nutq orqali odamzot o'zining ichki hissiyotlarini bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda to'la tuzilishi yoki shakllangan bo'lavermaydi. Inson nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab yetadi. Nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq odatdagi so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imlo-ishoralarga aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalar qo'shma gaplar deyarli qo'llanmaydi.

Yozma nutq tuzish esa murakkabroq jarayon bo'lib, u o'quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, imlo va tinish belgilariga rioya qilishni talab etadi. Avvalo shuni qayd qilish lozimki, maktabda o'qitiladigan barcha o'quv fanlari o'quvchi nutqi ustida ishlashga qaratilgan bo'ladi. Ona tili fani esa bular orasida eng asosiy va muhim sanaladi. O'quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari, uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o'sib boradi. Ravon, ixcham, ta'sirli nutq tinglovchiga huzur bag'ishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'z o'quvchilarini ana shunday so'zlashga o'rgatishdir. Maktab o'qituvchilarining, birinchi navbatda, ona tili o'qituvchisining vazifasi o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarning oldini olib, nutqini sheva ta'siridan, har xil so'zlar ta'siridan tozalash va adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashga o'rgatishdir.

Ta'lim tizimidagi dolzarb muammolar. Hozirgi kunda ko'plab ta'lim muassasalarida ona tili darslarini o'tkazishda an'anaviy metodlar ustunlik qilmoqda. Bu metodlar asosan grammatika qoidalarini yodlash, adabiy asarlarni tahlil qilish va yozma ishlar bajarishga yo'naltirilgan. Biroq bunday yondashuv o'quvchilarning til bo'yicha haqiqiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas. Zamonaviy hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun o'quvchilar nafaqat grammatik qoidalarni bilishi, balki o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda aniq, ravon va ta'sirli ifodalay olishi kerak. Bugungi kunda og'zaki nutq ko'nikmalari va yozma nutq ko'nikmalarini alohida-alohida rivojlantirish yondashuvi o'z samaradorligini yo'qotib bormoqda. Chunki real hayotda bu ikki ko'nikma bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda ishlaydi. Masalan, og'zaki nutqda ishlatilgan so'z boyligi yozma nutqqa ham ta'sir etadi, yozma nutqdagi tuzilma va mantiq og'zaki nutqni ham boyitadi.

Zamonaviy pedagogik talablar. Zamonaviy pedagogika fani nutq faoliyatini yagona, murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida qarashni talab etmoqda. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat ma'lumot qabul qiluvchi, balki faol ishtirokchi va ijodkor shaxs sifatida namoyon bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, ona tili darslarida og'zaki va yozma nutqni integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurati tug'iladi. Integratsiyalashgan yondashuv nafaqat o'quvchilarning til bo'yicha kompetensiyalarini oshiradi, balki ularning fikrlash qobiliyatini, ijodiy salohiyatini va shaxsiy rivojlanishini ham rag'batlantiradi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar tilning barcha tomonlarini – fonetika, leksika, grammatika, stilistika va pragmatikani – yagona tizim sifatida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maqsad va vazifalarning belgilanishi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ona tili darslarida og'zaki va yozma nutqni samarali rivojlantirish uchun integratsiyalashgan metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: Birinchidan, og'zaki va yozma nutqning psixolingvistik asoslarini chuqur o'rganish. Bu jarayon o'quvchilarning fikrlash faoliyati, til tuzilishi va nutq jarayonlari o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni tushunishga yordam beradi. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki va yozma nutq bir xil kognitiv jarayonlardan foydalanadi, ammo ularning amalga oshirilish usullari turlicha bo'ladi. Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish va ularni ona tili ta'limiga moslashtirishning yo'llarini aniqlash. Bu jarayonda kommunikativ yondashuv,

kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatli yondashuv va boshqa zamonaviy pedagogik konsepsiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Uchinchi, integratsiyalashgan metodlarning nazariy asoslarini yaratish. Bu vazifa doirasida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishning umumiy qonuniyatlari, ularning o'zaro ta'siri mexanizmlari va pedagogik jarayonda bu ta'sirni kuchaytirishning yo'llari o'rganiladi. To'rtinchidan, amaliy metodlar va usullarning to'plamini ishlab chiqish. Bu usullar turli yosh guruhlari va ta'lim bosqichlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, ular o'qituvchilar uchun qo'llay oladigan darajada aniq va tushunarli bo'lishi lozim.

Tadqiqotning ilmiy asoslari. Ushbu tadqiqot zamonaviy lingvistika, psixolingvistika va pedagogika fanlari yutuqlariga asoslanadi. Lingvistik jihatdan, nutq faoliyatining kommunikativ-funksional nazariyasi, diskurs tahlili va pragmatika yo'nalishlari muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nazariyalar til nafaqat grammatik tuzilma, balki ijtimoiy muloqot vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Psixolingvistik jihatdan, L.S.Vigotskiy, A.A.Leontev, A.R.Luriya va boshqa olimlarning nutq faoliyati nazariyalari asosiy yo'naltiruvchi printsiplari bo'lib xizmat qiladi. Bu nazariyalar nutqning fikrlash bilan bog'liqligini, uning rivojlanish bosqichlarini va individual xususiyatlarini ochib beradi. Pedagogik jihatdan, P.Ya.Galperin, N.F.Talzina va boshqalarning bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi, shuningdek, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik bazani tashkil etadi. Bu nazariyalar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini samarali shakllantirish yo'llarini ko'rsatib beradi.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Nutqning nutq sharoitiga mosligi. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Masalan, so'zlovchi bitta, tinglovchi ko'p bo'lsa, so'zlovchining baland ovozda to'xtam (pauza)larga rioya qilib, fikrni izchil va bir-biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma'lum bir mavzuni sinfda, biror yig'inda ochib berishdagi nutqida o'z aksini topadi. Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishi hamdir.

2. Nutqning mazmundorligi. O'quvchi nutqi nutq sharoitiga mos tushsa hamda uning o'zi bilgan va xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilsagina mazmunli bo'ladi. Aniq dalillar, o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritgan fikrlari o'zgalar diqqatini o'ziga tortadi.

3. Nutqning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytarilgan takror fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

4. Nutqning boy va rang-barang bo'lishi. Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, maqol va matallardan, ko'chma ma'noli so'zlardan, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy til vositalaridan keng va o'rinli foydalanishda namoyon bo'ladi.

5. Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

6. Nutqning ohangdor, ta'sirli bo'lishi. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. O'quvchi har bir she'riy yoki nasriy asarni ohangdorlikka amal qilgan holda, sintagmalarga rioya qilib, mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'llab o'qishi zarur.

O'quvchilar nutqini o'stirishda quyidagi amaliy tadbirlar qo'llanadi:

1. Adabiy talaffuzni har bir darsda o'rganiladigan qoidalarga bog'lab o'rgatish.
2. Boshqa fanlarni o'qitishda ham nutq o'stirishga e'tibor berish.
3. O'quvchi nutqidagi adabiy tilga xos bo'lmagan dalillarni tushuntira bilish.
4. Fonetika o'qitishda aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan tovushlar talaffuziga e'tibor berish.

5. Orfografik malakalarni mustahkamlashga oid darslar.

6. O'quvchilarni turli tadbirlarda va yig'inlarda chiqib so'zlashga odatlantirish.

7. She'riy va nasriy asarlardan parchalar yod oldirib borish.

Maktabda yagona orfografiya va nutq rejimi maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasi oldiga o'quvchilarning savodxonligini oshirish, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishida faol ishtirok etish vazifasini qo'yadi. Bunda savodxonlik va nutq madaniyatini o'stirishda yagona talab amalga oshiriladi. Yuqorida keltirilgan usullar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi".

Asrimizning 20-30-yillaridan boshlab nutq, nutq madaniyati ilmiy muammo sifatida jamoatchilik e'tiborini torta boshladi. 50-yillarning oxirlaridan boshlab esa nutq madaniyati tilshunoslikning o'z tekshirish obyektiga ega bo'lgan maxsus sohasi sifatida shakllana boshladi. Nutq madaniyatiga oid muammolarni tekshirish bo'yicha rus olimlaridan V.Vinogradov, E.D.Polivanov, B.A.Larin, S.I.Ojegov, V.G.Kostamarov va ayniqsa G.O.Vinokurlarning xizmatlari nihoyatda katta.

Demak, nutq-kishi faoliyatining bir turi bo'lib, o'zaro aloqa va xabar almashinish, hamda o'z fikrini his hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish kabi vazifalarni

bajaradi. “Nutqning shakllanishi bolaning umumiy rivojlanishining ehtimol eng muhim shartidir. Nutq bosh miya tomonidan ta’minlanadigan muhim oliy ruhiy vazifadir va uning rivojlanishida kuzatiluvchi har qanday og’ishlarga vaqtida e’tibor berilishi lozim” [Nazarova, 2017: 66]. Haqiqatdan ham nutq bolaligimizdan sekin astalik bilan rivojlanib boradi. Kimdadir tez, kimdadir esa sekin-astalik bilan shakllanadi. Bu ayniqsa, boshlang’ich sinf o’quvchilarida yaqqol namoyon bo’ladi. Shu sababli ham boshlang’ich sinfda o’tiladigan barcha darslarning tag zaminida nutq o’stirish jarayoni muhim o’rin egallaydi. Chunki, o’quvchilarning o’qishi, yozishi, o’z fikr mulohazalarini, tasavvur va tushunchalarini boshqalarga yetkaza olishligi ularning nutqini qay darajada rivojlanganligi bilan bog’liqdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu maqola orqali biz til va nutqning farqli tomonlarini, qaysi olim qanday ta’riflaganligini, til va nutq tushunchalari nechanchi arslarda rivojlanganligini bilib olishimiz mumkin. Biz ushbu tushunchalarning farqli tomonlarini o’rganishimizning sababi shundaki, boshlang’ich sinfda o’quvchilarning o’qishi, yozishi, o’z fikr mulohazalarini, tasavvur va tushunchalarini boshqalarga yetkaza olishlik jarayonida nutq muhim ahamiyatga egadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Rahmatov F. (2020). Ona tili darslarida matn ustida ishlash metodlari- Toshkent.
2. Tajibayeva G. (2019). O’qitish metodikasida zamonaviy yondashuvlar- Samarqand.
3. M. Xayrullayev. O’zbek pedagogik antalogiyasi.
4. Abdullayeva Q. Nutq o’stirish. 1980. 66-bet.
5. Mirhojiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features of Unconventional Combinations and Agricultural Terms in Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
6. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.